KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
ISSN: 2181-1695

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

OAK: 01-08/1819/6

www.herald.kokanduni.uz

FUQAROLIK JURNALISTIKASIDA GENDER MASALALARINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA XORIJIY TAJRIBA

Zakirova Oisha Vohid qizi,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
“PR va Menejment” fakulteti dekani (PhD), dotsent.
ORCID: 0009-0007-0759-4840
oisha993wc@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 12-yanvar 2026-yil
Tasdiqlandi: 15-yanvar 2026-yil
Jurnal soni: 17
Maqola raqami: 82
DOI:https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1868

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

fuqarolik jurnalistikasi, gender vakilligi, gender tengligi, gender stereotiplari, raqamli media, raqamli xavfsizlik, media kontent, gender-sezgir jurnalistika, axborot makoni, xorijiy tajriba

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada fuqarolik jurnalistikasida gender masalalarining nazariy-metodologik asoslari hamda xorijiy tajribada gender vakilligining shakllanish xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda gender tengligi faqat axborot kontentini yaratuvchilar tarkibidagi miqdoriy nisbat sifatida emas, balki mavzu va manbalarni tanlash, ekspertlik pozitsiyalarining ifodalanishi, gender stereotiplarining namoyon bo‘lishi, raqamli platformalardagi ko‘rinuvchanlik va xavfsiz ishtirok kabi o‘zaro bog‘liq omillar majmui sifatida baholangan. Xorijiy amaliyot, xususan, Yevropa va boshqa mintaqalardagi tajriba qiyosiy hamda kontent-tahliliy yondashuvlar asosida o‘rganilib, raqamlashtirish gender nomutanosibliklarini avtomatik ravishda bartaraf etmasligi asoslangan. Tadqiqot natijalari fuqarolik jurnalistikasida gender vakilligini baholashda “ishtirok” bilan bir qatorda “ovoz”, “ta’sir” va “raqamli xavfsizlik” mezonlarini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Shu asosda gender-sezgir fuqarolik jurnalistikasini rivojlantirishning amaliy yo‘nalishlari taklif etilgan.

Kirish. Raqamli kommunikatsiya muhitining kengayishi jurnalistik axborotni ishlab chiqarish va tarqatishning an’anaviy institutsional chegaralarini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Bugungi media makonida axborot yaratish jarayoni professional jurnalistlar bilan cheklanmay, voqea-hodisalarni bevosita kuzatuvchi, ularni ijtimoiy tarmoqlar va boshqa raqamli platformalar orqali ommaga yetkazuvchi fuqarolar ishtirokida ham shakllanmoqda. Shu jihatdan fuqarolik jurnalistikasi nafaqat axborot almashinuvining muqobil shakli, balki jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijtimoiy guruhlarning ovozini ommaviy maydonga olib chiqish va ilgari yetarlicha yoritilmagan masalalarni kun tartibiga kiritish mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda. UNESCO ham fuqarolik va muqobil media shakllarining xilma-xil ijtimoiy guruhlar, jumladan, ayollar va boshqa yetarlicha vakillik qilinmaydigan qatlamlarning fikrini ifodalash imkoniyatini kengaytirishini ta’kidlaydi [1].

Mazkur jarayonning gender jihati alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Chunki media makonida gender munosabatlari faqat ayollar va erkaklarning axborot yaratishdagi son jihatidan ishtiroki bilan belgilanmaydi; ularning qaysi mavzularda, qanday obrazda va qanday ijtimoiy kontekstda namoyon etilishi ham muhimdir. Media gender rollari, ijtimoiy kutilmalar va stereotiplarni nafaqat aks ettiradi, balki ularning qayta ishlab chiqarilishi yoki o‘zgarishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli fuqarolik jurnalistikasida gender masalalarini o‘rganish kontentdagi ayol va erkak obrazlarini sanash bilangina cheklanmasdan, axborot yaratish imkoniyatlarining taqsimlanishi, mavzu tanlash mexanizmlari, auditoriyaning ishtiroki, raqamli platformalardagi ko‘rinish va gender stereotiplarining qayta ishlab chiqarilish shakllarini kompleks tahlil qilishni talab etadi.

Muammoning yana bir muhim jihati shundaki, fuqarolik jurnalistikasi professional tahririyatlarning an’anaviy nazorat mexanizmlaridan nisbatan erkin bo‘lgan kommunikativ muhitda rivojlanadi. Bu holat bir tomondan turli ijtimoiy guruhlarning o‘z nuqtayi nazarini bevosita ifodalash imkoniyatini kengaytirsa, ikkinchi tomondan stereotipik qarashlar, biryoqlama tasvir, kamsituvchi diskurs va onlayn tazyiqning tez tarqalishi uchun ham sharoit yaratishi mumkin. UNESCO ma’lumotlarida ham raqamli media imkoniyatlari gender tengligini ilgari surish bilan bir qatorda mavjud diskriminatsiya va stereotiplarni kuchaytirishi mumkinligi qayd etilgan. Demak, fuqarolik jurnalistikasining demokratik va inklyuziv salohiyatini baholash uning texnologik imkoniyatlari bilangina emas, balki mazmuniy va gender mezonlari asosida ham amalga oshirilishi lozim.

O‘zbekistonda gender tengligi masalasi huquqiy jihatdan ham mustahkamlangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, davlat tomonidan ularning jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarini ta’minlash kafolatlangan. Mazkur konstitutsiyaviy norma media makonida ham ayollar va erkaklarning teng vakilligi, axborot yaratish va tarqatish imkoniyatlari hamda ularning ijtimoiy obrazlarini xolis yoritish masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish uchun muhim huquqiy asos vazifasini bajaradi [2].

Shu nuqtayi nazardan, fuqarolik jurnalistikasida gender masalalarini tadqiq etishning ilmiy zarurati, avvalo, raqamli kommunikatsiyaning demokratik imkoniyatlari bilan gender tengligining real namoyon bo‘lishi o‘rtasidagi nisbatni aniqlashdan kelib chiqadi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi aynan fuqarolik jurnalistikasi rivojlangan xorijiy media makonlarida gender mavzusining qanday talqin qilinishi, ayollar va erkaklarning media ishtiroki qanday shakllanishi hamda gender stereotiplari va tenglik tamoyillarining axborot kontentida qanday namoyon bo‘lishini nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilish bilan belgilanadi. Bu esa xorijiy tajribani o‘rganish orqali fuqarolik jurnalistikasida genderga sezgir yondashuvning samarali mexanizmlarini aniqlash va ularni milliy media makonining rivojlanish xususiyatlari bilan qiyoslash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Fuqarolik jurnalistikasining gender jihatlarini tadqiq etishda mavjud ilmiy yondashuvlarni shartli ravishda uch o‘zaro bog‘liq yo‘nalishga ajratish mumkin: birinchisi — media kontentida genderning ifodalanishi va uni baholash mezonlari; ikkinchisi —

ayollarning fuqarolik jurnalistikasidagi faol ishtiroki va axborot ishlab chiqarish imkoniyatlari; uchinchisi — raqamli platformalar orqali ishtirokning kengayishi bilan bir qatorda yuzaga kelayotgan yangi tengsizlik va xavflar.

Mazkur yo‘nalishning metodologik asoslarini ishlab chiqishda UNESCO tomonidan taklif etilgan Gender-Sensitive Indicators for Media konsepsiyasi muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuv gender masalasini faqat media tashkilotlaridagi ayollar va erkaklar soni bilan o‘lchashni yetarli deb hisoblamaydi. Unda media faoliyatining institutsional muhiti bilan bir qatorda, axborot mazmunida ayollar va erkaklarning qanday tasvirlanishi, gender stereotiplarining mavjudligi va gender tengligini ta’minlashga qaratilgan strategik mexanizmlar ham baholash obyekti sifatida qaraladi. Muhimi, UNESCO mazkur indikatorlardan fuqarolik media guruhlari tomonidan ham foydalanish mumkinligini qayd etadi. Shu jihatdan ushbu konsepsiya fuqarolik jurnalistikasini professional jurnalistikadan tashqaridagi oddiy axborot almashinuvi emas, balki gender munosabatlari shakllanadigan kommunikativ makon sifatida o‘rganish imkonini beradi [1].

Gender va jurnalistika bo‘yicha nazariy tadqiqotlar ham raqamli texnologiyalar paydo bo‘lishi media maydonidagi gender nomutanosibliklarini avtomatik ravishda bartaraf etmaganini ko‘rsatadi. Oxford Research Encyclopedia of Communicationda e’lon qilingan tadqiqotda ayollar jurnalistikaning ayrim quyi maqomli va mahalliy yo‘nalishlarida nisbatan ko‘proq ishtirok etsa-da, siyosat, biznes, sport va konflikt jurnalistikasi kabi yuqori maqomli sohalarda erkaklarning ustunligi saqlanib qolayotgani qayd etiladi. Shu bilan birga, bloglar va Twitter kabi platformalar fuqarolarga o‘z nuqtayi nazarini bevosita ifodalash, mavjud gender rollariga qarshi chiqish va kommunikativ munosabatlarni demokratlashtirish imkonini berishi ta’kidlanadi. Demak, fuqarolik jurnalistikasining paydo bo‘lishi gender tengsizligini yo‘q qiluvchi tayyor mexanizm emas, balki mavjud media ierarxiyalarini qayta shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘lgan muhitdir [3].

Mazkur nazariy xulosani Hindistondagi fuqarolik jurnalistikasi amaliyotiga bag‘ishlangan yangi empirik tadqiqot yanada konkretlashtiradi. Paromita Painning 2024-yilda e’lon qilingan tadqiqotida CGNet Swara va Video Volunteers kabi fuqarolik jurnalistikasi tashkilotlarida faoliyat yurituvchi 65 nafar ishtirokchi bilan chuqurlashtirilgan intervyular o‘tkazilgan. Natijalar ushbu platformalar resurslari cheklangan hududlarda yashovchi ayollarga yangilik ishlab chiqarish jarayoniga kirish, ayollar muammolarini jamoatchilikka olib chiqish va boshqa ayollarni axborot faoliyatiga jalb etish imkonini berganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tadqiqot ayollar muammolarini yoritish jarayoni patriarxal ijtimoiy munosabatlar sharoitida doimo bir xil darajada erkin kechmasligini ham ko‘rsatadi. Shunday qilib, fuqarolik jurnalistikasi ayollarning media vakilligini kengaytiruvchi vosita bo‘lishi mumkin, biroq uning real samarasi texnologik imkoniyatdan tashqari ijtimoiy muhit va mavjud gender munosabatlariga ham bog‘liq [4].

Raqamli yangiliklar iste’moli va ishtirokining gender xususiyatlarini o‘rgangan tadqiqotchilardan K. Eddy esa muammoning boshqa tomonini ochib beradi. Uning 2023-yilgi tadqiqotlariga ko‘ra, yangiliklar bilan faol ishtirok etish — ya’ni post joylashtirish yoki izoh qoldirish — umumiy auditoriyaning 22 foizini tashkil etgan, 31 foiz foydalanuvchi esa yangiliklarni o‘qish, yoqtirish yoki ulashish bilan cheklangan. Muhimi, faol ishtirokchilar orasida erkaklar ulushi yuqoriroq ekani aniqlangan. Bu holat raqamli platformalarda texnik jihatdan “hamma uchun ochiq” bo‘lgan kommunikativ imkoniyatlar amalda teng darajada foydalanilayotganini anglatmasligini ko‘rsatadi [5].

So‘nggi tadqiqotlar gender masalasini faqat ishtirok va vakillik bilan cheklab qo‘ymasdan, raqamli kommunikatsiyadagi ko‘rinish va ta’sir mexanizmlariga ham yo‘naltirmoqda. Germaniyadagi siyosiy va ma’lumotlar jurnalistlarining X (sobiq Twitter) platformasidagi faoliyatini qiyosiy o‘rgangan B. Witzenberger va J. Pfeffer “More inclusive and wider sources: a comparative analysis of data and political journalists on Twitter (Now X) in Germany” (2024) nomli tadqiqotida ayol jurnalistlarning boshqa ayol jurnalistlarni tilga olish va qayta ulashish holatlarida erkak hamkasblariga nisbatan faolroq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatgan. Mazkur natija gender vakilligini faqat “qancha ayol ishtirok etmoqda?” degan savol bilan o‘lchash yetarli emasligini, balki kommunikativ aloqalar, axborotni kuchaytirish va professional ko‘rinishning kimlar o‘rtasida taqsimlanishini ham tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi [6].

Boshqa tomondan, raqamli ishtirokning kengayishi ayollar uchun faqat yangi imkoniyatlarni emas, balki yangi xavflarni ham yuzaga keltirmoqda. Sadia Jamil va boshqalarning 2025-yilda e’lon qilingan tadqiqoti ijtimoiy tarmoqlar ayollarga o‘z muammolarini ifodalash va ilgari cheklangan mavzularni jamoatchilik muhokamasiga olib chiqish imkonini berishini, biroq ayni platformalar genderga asoslangan haqorat, tazyiq va ishonchlilikni shubha ostiga qo‘yuvchi hujumlar uchun ham maydon yaratishini ko‘rsatadi. Bu holat fuqarolik jurnalistikasida gender masalasini “ishtirok imkoniyati” bilan yakunlash mumkin emasligini, axborot ishlab chiqarishdagi xavfsizlik va kommunikativ barqarorlikni ham metodologik mezon sifatida kiritish lozimligini ko‘rsatadi [7].

Shuningdek, N.Newmanning 2026-yilgi hisobotlari raqamli yangiliklar ekotizimida ijtimoiy tarmoqlar, video platformalar va yangi turdagi kontent yaratuvchilarning roli yanada kuchayayotganini ko‘rsatadi. Hisobotda ijtimoiy tarmoqlar va video tarmoqlari 48 ta bozor bo‘yicha onlayn yangiliklarga murojaat qilishning eng keng tarqalgan kanallariga aylangani qayd etiladi. Bu jarayon fuqarolik jurnalistikasining chegaralarini ham kengaytirmoqda: axborot ishlab chiqaruvchi subyekt endilikda faqat “fuqaro-jurnalist” emas, balki ijtimoiy tarmoqdagi mustaqil kontent yaratuvchi, bloger yoki muayyan mavzu bo‘yicha ixtisoslashgan raqamli kommunikator sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Biroq mazkur yangi media subyektlari an’anaviy ommaviy axborot vositalariga nisbatan ishonchlilik va xolislik masalalarida turlicha baholanmoqda [8].

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda fuqarolik jurnalistikasining gender jihatlari alohida elementlar bo‘yicha yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, ayollarning axborot ishlab chiqarishdagi ishtiroki, gender vakilligi, kontentning genderga sezgirligi, raqamli ishtirokdagi nomutanosiblik va platformaviy xavflarni yagona nazariy-metodologik tizimda qiyosiy baholash masalasi hali to‘liq yechilgan emas. Ayniqsa, AQSh va G‘arbiy Yevropa tajribasini Osiyo mamlakatlaridagi amaliyot bilan bir metodologik mezonlar asosida solishtirish fuqarolik jurnalistikasida gender tengligining universal va hududiy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Shu sababli mazkur tadqiqotda gender masalasini faqat media kontentining mavzusi sifatida emas, balki axborot ishlab chiqarishdagi ishtirok, vakillik, kommunikativ ta’sir, gender stereotiplari va raqamli xavfsizlikni qamrab oluvchi kompleks hodisa sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda fuqarolik jurnalistikasida gender masalalarining nazariy va amaliy xususiyatlarini aniqlash uchun kompleks va qiyosiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida fuqarolar tomonidan yaratiladigan va raqamli platformalar orqali tarqatiladigan jurnalistik kontent, tadqiqot predmeti sifatida esa unda gender vakilligi, ayollar va erkaklarning axborot ishlab chiqarishdagi ishtiroki, gender stereotiplari hamda genderga sezgir yoritish xususiyatlari belgilandi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, tizimli yondashuv va tavsifiy tahlil usullaridan foydalanildi. Xorijiy tajribani o‘rganishda AQSh va G‘arbiy Yevropa hamda Osiyo mamlakatlaridagi fuqarolik jurnalistikasi amaliyotlari o‘zaro taqqoslanib, gender masalalarining mavzu tanlovi, ayollar

va erkaklarning media vakilligi, axborot yaratishdagi faollik, stereotipik tasvirlar va raqamli kommunikatsiyadagi xavfsizlik jihatlari bo'yicha farqlar aniqlandi.

Empirik materiallarni tanlashda ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlarning metodik va tahliliy hisobotlari hamda fuqarolik jurnalistikasi va raqamli media faoliyatiga oid ishonchli ochiq manbalarga ustuvorlik berildi. Tahlil jarayonida manbalarning ilmiyligi, mavzuga bevosita aloqadorligi va qiyosiy tahlil uchun yetarliligi asosiy mezon sifatida olindi.

Shu asosda tadqiqot fuqarolik jurnalistikasida gender masalasini faqat ayollar ishtirokining miqdoriy ko'rsatkichi sifatida emas, balki ishtirok, vakillik, kontentning genderga sezgirligi, stereotiplar va raqamli xavfsizlikni o'zaro bog'liq holda namoyon qiluvchi kompleks hodisa sifatida baholashga yo'naltirildi.

Natijalar. Fuqarolik jurnalistikasida gender masalasini baholashda faqat kontent yaratuvchilarning jinsiy tarkibini aniqlash yetarli emas. Gender tengligi, avvalo, kimning ovozi axborot manbasi sifatida tan olinayotgani, kim ekspert sifatida ko'rsatilayotgani va qaysi ijtimoiy tajriba jamoatchilik kun tartibiga olib chiqilayotganida namoyon bo'ladi. 2025-yilgi Global Media Monitoring Project (GMMP)ning 160 dan ortiq mamlakatni qamrab olgan monitoringi ayollar yangiliklarda ko'rinadigan, eshitiladigan yoki tilga olinadigan shaxslarning atigi 26 foizini tashkil etganini ko'rsatdi. Bundan ham muhim jihati shundaki, ayollar ekspert yoki sharhlovchi sifatida atigi 23 foiz ulushga ega bo'lgan. Mazkur ko'rsatkich gender muammosining oddiy "ko'rinish" masalasidan ko'ra, ijtimoiy va professional autoritetning media orqali taqsimlanishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Mazkur natijani fuqarolik jurnalistikasi nuqtayi nazaridan talqin qilganda muhim metodologik xulosa kelib chiqadi: ayollarning kontentda mavjudligi ularning mazkur kontentga ta'sir darajasini avtomatik ravishda anglatmaydi. Shaxsning yangilikda tilga olinishi bilan uning ekspert, qaror qabul qiluvchi, tahlilchi yoki mustaqil axborot manbasi sifatida namoyon bo'lishi o'rtasida sifat jihatidan farq mavjud. GMMPning 2025-yilgi ma'lumotlarida ayollar jurnalistlar tomonidan tayyorlangan materiallarda ayol manbalar ulushi erkak jurnalistlar materiallariga qaraganda yuqoriroq ekani — mos ravishda 29 va 24 foiz — aniqlangan. Bu natija jurnalist yoki kontent yaratuvchining genderi axborot manbalarini tanlash va shu orqali media kun tartibining gender tarkibiga ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatadi [9].

Bundan kelib chiqib, fuqarolik jurnalistikasida gender vakilligini baholashda "presence" va "voice" tushunchalarini farqlash maqsadga muvofiq. Birinchisi ayollarning kontentda mavjudligini, ikkinchisi esa ularning mazmunni shakllantiruvchi mustaqil subyekt sifatidagi ishtirokini anglatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, gender jihatdan muvozanatli fuqarolik jurnalistikasi ayollarni faqat voqea ishtirokchisi yoki shaxsiy tajriba egasi sifatida emas, balki ekspert, tashabbuskor, tahlilchi va jamoatchilik vakili sifatida ham ko'rsatishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, gender tengligi miqdoriy vakillikdan mazmuniy vakillikka o'tadi.

Yevropa tajribasi ham ushbu xulosani tasdiqlaydi. Yevropa Gender Tengligi Instituti (EIGE)ning 2025-yilgi ma'lumotlarida gender stereotiplari jamiyatdagi tanlov va imkoniyatlarga hanuz sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani qayd etilgan. Institutning media bo'yicha ma'lumotlari esa raqamli makonning kengayishi stereotiplarni avtomatik ravishda yo'q qilmasligini, aksincha, mavjud ijtimoiy qarashlar yangi media shakllari orqali qayta namoyon bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. EIGE keltirgan GMMP ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda Yevropa raqamli mediasida ayollar yangilik subyektlari va manbalarining atigi 28 foizini tashkil etgan [10].

Mazkur ko'rsatkich fuqarolik jurnalistikasining "ochiq platforma" sifatidagi tabiatiga nisbatan ehtiyotkor ilmiy yondashuvni talab qiladi. Raqamli platformaga kirish imkoniyati kengaygani bilan axborotdagi gender vakilligi mutanosib ravishda oshmasligi mumkin. Chunki platformadagi ko'rinish nafaqat foydalanuvchining kontent yaratish qobiliyatiga, balki mavzu tanlovi, auditoriyaning reaksiyasi, platformaning tavsiya mexanizmlari va kontentning tarqalish dinamikasiga ham bog'liq. Demak, fuqarolik jurnalistikasining demokratik salohiyati texnologik ochiqlik bilan emas, balki ochiqlikning real kommunikativ vakillikka aylanish darajasi bilan baholanishi kerak.

Fuqarolik jurnalistikasining platformaviy xususiyatlarini o'rgangan Peterson-Salahuddinning TikTokdagi 14 nafar fuqarolik jurnalisti bilan o'tkazgan tadqiqoti ham mazkur masalaga yangi jihat qo'shadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, fuqarolik jurnalistlarining axborot yaratish va tarqatish amaliyotlari platformaning o'ziga xos ishlash mantig'i bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular noto'g'ri axborot tarqalishi xavfini ham hisobga oladi. Bu holat fuqarolik jurnalistikasini an'anaviy jurnalistikaning shunchaki "havaskor shakli" sifatida emas, balki o'zining texnologik va kommunikativ qoidalariga ega bo'lgan alohida axborot ekotizimi sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi [11].

Mazkur platformaviy yondashuv gender masalasiga tatbiq etilganda yana bir muhim natija yuzaga keladi. Agar kontentning auditoriyaga yetib borishi platformaning ko'rinish va tavsiya mexanizmlariga bog'liq bo'lsa, gender tengligini faqat kontentning o'zidan izlash yetarli emas. Bir xil sifat va mazmunga ega bo'lgan ikki materialdan qaysi biri ko'proq ko'rilishi, ulashilishi yoki muhokama qilinishi ham gender vakilligining real natijasiga ta'sir qiladi. Shunday qilib, fuqarolik jurnalistikasida gender masalalarini o'rganishda kontent darajasi bilan bir qatorda platformaviy tarqatish darajasi ham hisobga olinishi lozim.

Gender vakilligining mavzular bo'yicha notekis taqsimlanishi ham tadqiqotning muhim natijalaridan biridir. 2025-yilgi GMMP monitoringida ayollar sport yangiliklaridagi subyektlarning atigi 15 foizini tashkil etgani qayd etilgan. Bu ko'rsatkich gender tengsizligi barcha jurnalistik mavzularda bir xil darajada namoyon bo'lmasligini ko'rsatadi. Ya'ni gender masalasi umumiy media statistikasi bilan cheklanmay, mavzular kesimida ham o'rganilishi kerak. Fuqarolik jurnalistikasida sport, siyosat, iqtisodiyot, texnologiya yoki ijtimoiy muammolar kabi yo'nalishlarda ayollar va erkaklarning ko'rinishi alohida tahlil qilinsa, gender vakilligining yashirin nomutanosibliklari aniqroq namoyon bo'ladi.

Yevropa tajribasida gender vakilligi faqat jurnalistlar soni bilan emas, balki media sohasida qaror qabul qilish va institutsional boshqaruv darajasi bilan ham bog'liq. EIGE ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa Ittifoqida media regulyatorlari a'zolari tarkibida ayollar ulushi 35 foizdan yuqori bo'lib, bu gender tengligi masalasi kontent yaratish bosqichidan tashqari media siyosatini shakllantirish va nazorat qilish mexanizmlarida ham namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Fuqarolik jurnalistikasida an'anaviy tahririyat ierarxiyasi mavjud bo'lmasa-da, platforma moderatsiyasi, jamoaviy boshqaruv, mavzu tanlash, kontentni saralash va auditoriya e'tiborini taqsimlash kabi funksiyalar muayyan darajada institutsional qarorlar o'rnini bosadi. Binobarin, gender vakilligining boshqaruv va qaror qabul qilish bilan bog'liq jihatlari fuqarolik jurnalistikasida ham o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari raqamli xavfsizlikni gender vakilligidan alohida ko'rib chiqish mumkin emasligini ham ko'rsatadi. UNESCO va UN Women hamkorligida 2025-yilda o'tkazilgan global tadqiqotda so'rovda qatnashgan ayol jurnalistlarning 75 foizi kasbiy faoliyati davomida onlayn zo'ravonlikka duch kelganini bildirgan; 2020-yilda ushbu ko'rsatkich 73 foizni tashkil etgan. Bundan ham muhim jihat shundaki, onlayn hujumlarni real hayotdagi zo'ravonlik, ta'qib yoki tajovuz bilan bog'lagan respondentlar ulushi 2020-yildagi 20 foizdan 2025-yilda 41,6 foizga, ya'ni qariyb 42 foizga yetgan. Shuningdek, 2025-yilgi so'rovda qatnashgan ayol jurnalistlar va media xodimlarining 19 foizi sun'iy intellekt

yordamida amalga oshirilgan onlayn zo‘ravonlikka duch kelganini qayd etgan [12].

Fuqarolik jurnalistikasida gender vakilligi va raqamli xavfsizlikni tavsiflovchi xalqaro ko‘rsatkichlar

№	Ko‘rsatkich	Natija	Davr
1	Yangiliklarda ko‘rinadigan, eshitiladigan yoki ular haqida so‘z yuritiladigan ayollar ulushi — an’anaviy media	26%	2025
2	Yangilik saytlarida ayollarning subyekt/manba sifatidagi ulushi	29%	2025
3	Siyosiy yangiliklarda ayollarning subyekt/manba sifatidagi ulushi	22%	2025
4	Iqtisodiy yangiliklarda ayollarning subyekt/manba sifatidagi ulushi	20%	2025
5	Sport yangiliklarida ayollarning subyekt/manba sifatidagi ulushi	15%	2025
6	An’anaviy mediada ekspert va vakil (spokesperson) sifatida qatnashgan ayollar ulushi	23%	2025
7	Onlayn yangiliklarda ekspert va vakil sifatida qatnashgan ayollar ulushi	28%	2025
8	Media regulyatorlari a’zolari orasida ayollar ulushi — YI	35,4%	Amaldagi EIGE ko`rsatkichi
9	Kasbiy faoliyati davomida onlayn zo‘ravonlikka duch kelgan ayol jurnalistlar	75%	2025
10	Onlayn hujumlarni real hayotdagi zo‘ravonlik, ta’qib yoki tajovuz bilan bog‘lagan ayol jurnalistlar	41,6% ≈ 42%	2025
11	AI yordamidagi onlayn zo‘ravonlikka duch kelgan ayol jurnalist va media xodimlari	19%	2025
12	Yangiliklarda gender stereotiplarini ochiqchasiga shubha ostiga qo‘yuvchi materiallar	taxm. 2%	2025

Manba: *muallif tomonidan GMMP, EIGE, UNESCO va UN Women ma’lumotlari asosida tuzildi.*

Mazkur ko‘rsatkichlar fuqarolik jurnalistikasining o‘ziga bevosita tegishli statistik natijalar sifatida emas, balki raqamli axborot makonida ayollarning jamoatchilik muloqotidagi ishtirokiga ta’sir qiluvchi xavfsizlik omilini tushuntiruvchi empirik asos sifatida talqin qilinishi lozim. Chunki fuqarolik jurnalistikasida professional jurnalist maqomi bo‘lmagan kontent yaratuvchilar ham platformalarning ochiq kommunikativ muhitida faoliyat yuritadi. Shu nuqtayi nazardan, onlayn ta’qib, genderga asoslangan hujumlar va sun’iy intellekt vositasidagi zo‘ravonlik xavfi ayollarning nafaqat kontent yaratish faolligiga, balki o‘z fikrini ommaviy maydonda ifodalash davomiyligiga ham ta’sir qilishi mumkin.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari fuqarolik jurnalistikasida gender masalasining asosiy muammosi ayollarning media maydonida umuman mavjud yoki mavjud emasligidan ko‘ra, ular qanday maqomda, qaysi mavzularda va qanday kommunikativ ta’sir bilan namoyon bo‘layotgani bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. 2025-yilgi xalqaro ma’lumotlar gender vakilligining global miqyosda hamon notekisligini, Yevropa tajribasi raqamli muhitda stereotiplar saqlanayotganini, platformaviy tadqiqotlar esa fuqarolik jurnalistikasining o‘ziga xos kommunikativ qoidalar asosida ishlashini ko‘rsatmoqda. Binobarin, fuqarolik jurnalistikasi gender tengligini o‘z-o‘zidan ta’minlovchi mexanizm emas; u gender vakilligini kengaytirish uchun yangi kommunikativ imkoniyatlar yaratadigan, biroq bu imkoniyatlarning real natijaga aylanishi kontent, platforma va ijtimoiy muhitga bog‘liq bo‘lgan media makoni sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari fuqarolik jurnalistikasida gender masalasini faqat ayollar va erkaklarning kontent yaratishdagi miqdoriy ishtiroki bilan baholash yetarli emasligini ko‘rsatdi. Gender vakilligi, avvalo, axborot kun tartibini shakllantirish, mavzu va manbalarni tanlash, ekspertlik pozitsiyalarining ko‘rinishi, stereotiplarning takrorlanishi hamda raqamli kommunikatsiya muhitida xavfsiz ishtirok etish imkoniyatlarining yaxlit tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan fuqarolik jurnalistikasining demokratik salohiyati faqat axborot ishlab chiqaruvchilar sonining ko‘payishi bilan emas, balki turli ijtimoiy guruhlarning axborot maydonida teng darajada ko‘rinishi va ovozga ega bo‘lishi bilan belgilanadi.

Xorijiy tajriba tahlili raqamlashtirishning o‘zi gender nomutanosibligini avtomatik ravishda bartaraf etmasligini ko‘rsatdi. 2025-yilgi Global Media Monitoring Project ma’lumotlarida ayollar an’anaviy yangiliklarda ko‘rilgan, eshitilgan yoki tilga olingan shaxslarning 26 foizini, yangilik veb-saytlarida esa 29 foizini tashkil etgani qayd etilgan. Demak, raqamli platformalarning ochiqligi mavjud gender iyerarxiyalarini avtomatik ravishda o‘zgartirmaydi; aksincha, kontentni saralash, algoritmik ko‘rinuvchanlik va auditoriya e’tiborining taqsimlanishi kabi yangi mexanizmlar gender tengligi masalasiga qo‘shimcha o‘lchamlar kiritadi.

Tadqiqotning muhim xulosalaridan biri shundan iboratki, “ko‘rinish” va “ovoz” tushunchalarini bir-biridan ajratish zarur. Ayollarning axborot materiallarida mavjudligi ularning mazmunni shakllantirishdagi real ta’siri bilan teng emas. Ayniqsa, ekspertlik, qaror qabul qilish, siyosiy-iqtisodiy jarayonlarni sharhlash va jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarida gender tafovutlari saqlanib qolishi mumkin. Binobarin, fuqarolik jurnalistikasining gender sezgirligini baholashda faqat ishtirokchilar ulushini emas, balki kimning fikri markazga chiqarilayotgani va kimning nuqtayi nazari axborot kun tartibini belgilayotganini ham hisobga olish lozim.

Yana bir muhim xulosa — gender vakilligi raqamli xavfsizlik bilan bevosita bog‘liq. UNESCO va UN Women hamkorligidagi 2025-yilgi tadqiqotda so‘rovda qatnashgan ayol jurnalistlarning 75 foizi ish jarayonida onlayn zo‘ravonlikka duch kelgani, 42 foizi esa bunday hujumlarni real hayotdagi zo‘ravonlik, ta’qib yoki tajovuz bilan bog‘lagani aniqlangan. Shuningdek, respondent ayol jurnalistlar va media xodimlarining 19 foizi sun’iy intellekt yordamida amalga oshirilgan onlayn zo‘ravonlikni boshdan kechirgan. Mazkur ko‘rsatkichlar professional jurnalistlarga tegishli bo‘lsa-da, ular raqamli jamoatchilik maydonida gender asosidagi bosimning ayollar ishtirokini cheklashi mumkin bo‘lgan tizimli xavf ekanini ko‘rsatadi.

Shundan kelib chiqib, fuqarolik jurnalistikasida gender tengligini ta’minlash uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, fuqarolik jurnalistikasi monitoringida gender ko‘rsatkichi faqat kontent yaratuvchilarning jinsiy tarkibi bilan cheklanmasdan, manba, ekspert, qahramon, mavzu, vizual tasvir va kontent tarqalishi kesimida kompleks baholanishi lozim.

Ikkinchidan, raqamli platformalarda genderga sezgir moderatsiya mexanizmlarini kuchaytirish, ayollarga nisbatan haqorat, tahdid, kamsitish va genderga asoslangan raqamli hujumlarni aniqlash hamda ularga tezkor munosabat bildirishning shaffof tartiblarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, fuqarolik jurnalistikasi ishtirokchilari uchun media va axborot savodxonligi bilan bir qatorda raqamli xavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, onlayn zo'ravonlikka qarshi choralar va sun'iy intellekt asosidagi manipulyativ kontentni aniqlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish zarur.

To'rtinchidan, gender masalasini yoritishda ayollarni faqat jabrlanuvchi yoki ijtimoiy muammo obyekti sifatida emas, balki ekspert, tadbirkor, mutaxassis, jamoat faoli va qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida namoyon etishga ustuvor ahamiyat berish lozim. Bu yondashuv stereotipik tasvirni kamaytirish bilan birga, axborot mazmunining ijtimoiy muvozanatini ham kuchaytiradi.

Beshinchidan, fuqarolik jurnalistikasining rivojlanish strategiyalarida gender vakilligi va raqamli xavfsizlikni alohida yo'nalishlar sifatida emas, balki yagona barqaror ishtirok modeli sifatida qarash maqsadga muvofiq. Zero, ayolning axborot makonida mavjud bo'lishi yetarli emas; uning xavfsiz, mustaqil va mazmuniy jihatdan ta'sirchan ovozga ega bo'lishi fuqarolik jurnalistikasining demokratik qiymatini belgilovchi muhim mezondir.

Umuman olganda, tadqiqot fuqarolik jurnalistikasida gender tengligini ta'minlashning asosiy sharti ayollar sonini ko'paytirish bilangina emas, balki ko'rinishdan real ovozga, ishtirokdan ta'sirga va ochiqlikdan xavfsiz hamda barqaror ishtirokka o'tish bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Shu nuqtayi nazardan, gender-sezgir fuqarolik jurnalistikasi jamiyatdagi turli qarashlarning muvozanatli ifodalanishi, axborot xilma-xilligining kengayishi va raqamli jamoatchilik makonining demokratik salohiyati mustahkamlanishining muhim shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. UNESCO (2012) Gender-sensitive indicators for media: framework of indicators to gauge gender sensitivity in media operations and content. Paris: UNESCO. https://www.unesco.org/en/articles/gender-sensitive-indicators-media

2. O'zbekiston Respublikasi (2023) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy komissiyasi. 58-modda. https://konstitutsiya.gov.uz/uploads/constitution_oz.pdf

3. Linda Stainer (2017). "Jender and Journalism". Oxford: Oxford University Press. https://academic.oup.com/edited-volume/61798/chapter-abstract/546180789?utm

4. Paromita Pain (2024). "I know my work has effect."– the rise of the woman citizen journalist in India. Communication research and practice, 10(1), 92-107. https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/22041451.2024.2322809?utm

5. Eddy, K. (2023). Unpacking news participation and online engagement over time. Reuters Institute for the study of journalism. https://reutersinstitute.politics.ox.ac.uk/digital-news-report/2023/unpacking-news-participation-online%20engagement-over-time?utm

6. B. Witzenberger va J. Pfeffer (2024). "More inclusive and wider sources: a comparative analysis of data and political journalists on Twitter (Now X) in Germany ", Journalism and Media, 5(1), 412-431.
https://www.mdpi.com/2673-5172/5/1/27?utm

7. Sadia Jamil va boshqalar. (2025). Social media and gendered disinformation: the double-edged sword for women journalists. Media Asia, 52(4), 539-546. https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/01296612.2025.2564860?utm

8. Newman, N. (2026). How news creators are impacting politics and media around the world. Reuters Institute for the study of journalism. https://reutersinstitute.politics.ox.ac.uk/digital-news-report/2026/how-news-creators-are-impacting-politics-and-media-around-world?utm

9. Global Media Monitoring Project (2025) Who makes the news? Global Report 2025. World Association for Christian Communication (WACC). https://whomakesthenews.org/wp-content/uploads/2025/12/GMMP2025-GlobalReport.pdf?utm

10. European Institute for Gender Equality (EIGE) (2025) Gender Equality Index 2025: Sharper data for a changing world. Vilnius: EIGE. https://eige.europa.eu/publications-resources/publications/gender-equality-index-2025-sharper-data-changing-world?utm

11. Peterson-Salahuddin, C. (2024). News for (me and) you: exploring the reporting practices of citizen journalists on TikTok, Journalism Studies, 25(9), 107-1094. https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/1461670X.2023.2293829?utm

12. UNESCO and UN Women (2025/2026). Global survey reveals rising violence against women journalists. Paris: UNESCO. https://www.unesco.org/en/articles/global-survey-reveals-rising-violence-against-women-journalists?utm